



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**


**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**“O'ZBEK AMALIY FILOLOGIYASI
ISTIQBOLLARI”**
mavzusidagi

Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi

materiallari

(2022-yil 26-oktabr)



Toshkent – 2022

O‘zbek amaliy filologiyasi istiqbollari / Respublika ilmiy-amaliy konferensiya to‘plami. Elektron nashr / ebook. – Toshkent: ToshDO‘TAU, 26.10.2022. – 349 b.

Mazkur to‘plamdan amaliy filologiya sohasiga doir tadqiqot natijalari, O‘zbekistonda til siyosati va menejmentiga oid masalalar, zamonaviy leksikografiya va milliy terminologiya muammolari, kompyuter va korpus lingvistikasining nazariy-amaliy masalalari tadqiqi, lingvistik ekspertiza manbalari, terminologik lug‘atlarni yaratishga oid materiallar joy olgan.

Ushbu ilmiy to‘plamdan amaliy filologiya sohasi mutaxassislari, tadqiqotchilar, magistrantlar va sohaga qiziquvchi talabalar foydalanishlari mumkin.

Mas’ul muharrir:

B.R.Mengliyev – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Amaliy filologiya kafedrasini mudiri, filologiya fanlari doktori, professor.

Taqrizchilar:

S.X.Muhamedova – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti O‘zbek tili ta’limi fakulteti dekani, filologiya fanlari doktori, professor.

I.X.Islomov – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Amaliy filologiya kafedrasini dotsenti v.b., filologiya fanlari doktori.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEK AMALIY FILOLOGIYASI
ISTIQBOLLARI**

mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
materiallari

(2022-yil 26-oktabr)

Toshkent – 2022

TASHKILY QO'MITA

Sirojiddinov Shuhrat Samariddinovich (Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti)

Jamoliddinova Odinaxon Rustamovna (O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi)

Hamroyev G'ofir Hasanovich (O'zR Vazirlar Mahkamasining Ma'naviyat va davlat tilini rivojlantirish masalalari departamenti)

Karimov Suyun Amirovich, (Samarqand davlat universiteti)

Mengliyev Baxtiyor Rajabovich (Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti)

Muhamedova Saodat Xudoyberdiyevna (Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti)

Jo'raqo'ziev Nodir Imomqo'ziyevich (Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti)

Zaripov Rafiqjon Ergashboy o'g'li (Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti)

TAHRIR HAY'ATI

Mengliyev Baxtiyor Rajabovich

Islomov Ikrom Xushboqovich

Zaripov Rafiqjon Ergashboy o'g'li

Gulyamova Shaxnoza Kaxramonovna

Murtazayev Abror Odilovich

Musulmonova Kamola Husniddin qizi

Elova Dilrabo Qudratillayevna

Sobirova E'zoza Shuxrat qizi

3. SHO‘BA. KOMPYUTER VA KORPUS LINGVISTIKASINING AMALIY MASALALARI

LUG‘AVIY SHAKL YASOVCHI QO‘SHIMCHALARNING OT SO‘Z TURKUMIDAGI QURSHOVI VA LINGVISTIK MODELLASHTIRISH XUSUSIDA

Hamroyeva Shahlo Mirjanovna

Filologiya fanlari doktori.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti dotsenti.

Annotatsiya. Ushbu maqolada lug‘aviy shakl yasovchi qo‘shimchalarning ot so‘z turkumidagi qurshovi va lingvistik modellashtirish xususida fikr yuritiladi. Lug‘aviy shakl yasovchi qo‘shimchalar ot so‘z turkumiga qo‘shilganda joylashuviga qarab turli xil ma‘no berish, uslubiy vazifa bajarish holatlari ko‘p uchraydi. Bunday holatlar tabiiy tilga avtomatik ishlov berishda uning qurshovdagi ma‘nosini aniqlashga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: lug‘aviy shakl yasovchi, sintaktik shakl yasovchi, qurshov, lingvistik modellashtirish.

Abstract. In this article, the context of lexical form-forming adverbs in the noun group and linguistic modeling are discussed. When lexical and formative suffixes are added to the noun group, there are many cases of giving different meanings and performing stylistic tasks depending on the location. Such cases are modeled in natural language automatic processing, which helps to determine the meaning in the environment.

Key words: lexical form builder, syntactic form builder, environment, linguistic modeling.

Tabiiy tilga ishlov berish uchun o‘zbek tili birliklarining ma‘nosini avtomatik aniqlash masalasi qator masalalar echimiga xizmat qiladi. Morfologik analizator tuzish, korpus ishlab chiqish, mashina tarjimasida o‘zbek tilidagi qo‘shimchalar ma‘nosini aniqlash natija aniqligiga erishishga olib keladi. Shu nuqtayi nazardan o‘zbek tilidagi lug‘aviy shakl yasovchi qo‘shimchalarni lingvistik modellashtirish amaliy ahamiyat kasb etadi.

Otga xos lug‘aviy shakl yasovchi qo‘shimchalar sirasiga *shaxsiy munosabat shakli, kichraytirish, erkalash va hurmat shakli* kiradi. Shaxsiy munosabat kategoriyasiga oid shakl so‘zlovchining obyektiv borliqqa va o‘z nutqida ijobiy yoki salbiy munosabatni ifodalashga xizmat qiluvchi vosita sanaladi. Mutaxassislarning fikricha, shaxsiy munosabat, kichraytirish, erkalash, hurmatlash, kamsitish, kuchaytirish ma‘nosining turli xil qo‘shimcha yoki affiksoid yordamida ifodalanishi o‘zbek tilida keng tarqalgan. Masalan, *qizcha, yigitcha, kelinchak, qo‘zichoq* kabi so‘zdagi -cha, -chak, -choq qo‘shimchasi kichraytirish ma‘nosini

O‘ZBEK AMALIY FILOLOGIYASI ISTIQBOLLARI

anglatsa, *bolagina, ukajon, xolajon, akaxon, Rahimboy, Qo‘chqortoy, Gulsinbibi, Ra‘noxon, Mohirabonu* so‘zlaridagi *-gina, -jon, -xon, -toy, -boy, -bibi, -bonu* kabi affiksoid erkalatish (ko‘p holda) va kamsitish (ba‘zan) ma‘nosini keltirib chiqaradi. Demak, shaxsiy munosabat shaklini kichraytirish, erkalash va hurmatlash ma‘nosini bildiruvchi deb ikki katta guruhga bo‘lish lozim [Abuzalova, 2018: 84].

O‘zbek tilida shaxsiy munosabat ifodalashning uchinchi turi ham bor: u *-lar* qo‘shimchasini qavm-qarindoshlik bildiruvchi so‘zda egalik qo‘shimchasidan so‘ng keltirish bilan hosil qilinadi: *opamlar, dadamlar, amakimlar, bobomlar* kabi. Bunda hurmatlash ma‘nosida hurmat shakli yuzaga keladi. Shaxsiy munosabat kategoriyasi so‘zning leksik ma‘nosini o‘zgartirib yubormaydi (uning so‘z yasovchilik vositasi (*o‘rgimchak, qo‘g‘irchoq, ko‘rpacha, bog‘cha* kabi) bundan mustasno), balki asosdan anglashilgan ma‘noga qo‘shimcha (konnotativ) ma‘no kiritadi, ya‘ni *stul* va *stulcha* ikkita so‘z bo‘lsa ham, asosan bitta narsani (*stulni*) bildiradi [Mengliyev, 2014: 241]. O‘zbek tilidagi shaxsiy munosabat shakllarini morfoanalizatorida kvazigrammelar sifatida belgilaymiz hamda ularning barchasini ma‘lumotlar bazasiga joylashtiramiz.

Otda lug‘aviy shakl hosil qiluvchilarning odatdagi tartibi quyidagicha: kichraytirish/erkalash+son.

Kichraytirish/erkalash shaklining kam qo‘llanadigan shakli ko‘p qo‘llanadiganidan avval keladi: *toychoqcha, toyloqcha*. Ot-asos (N)ga subyektiv baho: kichraytirish-erkalash, kamsitish, piching-kesatiq qo‘shimchalari [Qo‘ng‘urov; Qo‘chkortoyev; Mahkamov] – f_1^n , keyin ko‘plik shakli [5; 3] – f_2^n qo‘shiladi: *toy+choq+lar*.

Subyektiv baho shakllari so‘z tarkibida takror qo‘llanish hollari ham uchraydi. Bunda passiv shakl aktiv shakldan oldinda joylashadi – $N+f_1^n+f_2^n$: *-choq+cha: toychoqcha*; *-chiq+cha: qopchiqcha*; *-a+cha: uyacha*; *ka+cha: yo‘lkacha/yo‘lakcha*; *-chak+cha: tugunchakcha*. Ushbu misollarning morfem tarkibida diaxron plandagi affikslarning sinxron qo‘shimchadan oldin joylashuvi kuzatiladi. Ammo og‘zaki nutqda qo‘llanuvchi o‘g‘ilchavoy ($N+f_1^n+f_2^n$) so‘zida *-voy -cha* faol qo‘shimchasidan keyin qo‘llanadi. Bunday teskari tartib *-voy/-boy* shaklining affiksoid ekanligi bilan izohlanadi.

Sholcha, bog‘cha (bolalar bog‘chasi), *ko‘rpacha* so‘zlarida yangi leksik ma‘no vujudga kelganligi uchun *-cha* lug‘aviy shakl yasovchi hisoblanmaydi, so‘z ma‘noli qismga ajralmaydi [Gulyamov, 1966: 78]. Bunday istisno so‘zlar istisnolar lug‘atiga kiritiladi; *-cha* morfema tahliliga tortilmaydi. O‘ngdan chapga tahlilida *-cha* shakli affiks sifatida topilishi mumkin, ammo o‘zak qismi tekshirilganda, istisnolar lug‘atida bu so‘zlar asos sifatida topiladi; tahlil ushbu so‘zlarning bitta lemmaga teng ekanligi bilan yakunlanadi. So‘zning morfem tarkibi qator xususiyatlarga ega: ular orasida affiksial omonimiya ham mavjud. Shaklan o‘xshash morfemalar so‘zda qo‘shimchalar joylashuvi bilan bog‘liq ayrim qonuniyatlarni keltirib chiqaradi. *-gina* f_2 shaklining *qo‘zichoqqinalarimiz* ($N+f_1^n+f_2^n+f_3^n+r_1$) so‘zidagi joylashuvi yoshlargina ($N+f_1^n+f_2^n$) so‘zidagi tartibdan farq qiladi. Birinchi misolda *-gina* lug‘aviy shakl yasovchi (f) bo‘lsa, ikkinchi

O‘ZBEK AMALIY FILOLOGIYASI ISTIQBOLLARI

misolda ayiruv-chegaralov yuklamasi vazifasini bajaradi: -gina lug‘aviy shakl yasovchi ko‘plik va egalik shakllaridan oldpozisiyani, -gina yuklamasi esa so‘ngpozisiyani egallaydi. Solishtiring: *dadaginalari* (-gina erkalash ma‘nosini bildiruvchi lug‘aviy shakl yasovchilar) / *dadalarigina* (-gina ayiruv-chegaralov yuklamasi); *bolaginaga* / *bolagagina*; *akaginasini* / *akasigina* so‘zshakllaridagi ham affiksial omonim. Morfoanaliz qoidalar majmuida -gina shaklining ushbu pozisiyalari quyidagi model ko‘rinishini oladi:

- 1) agar {N+gina+ko‘plik+egalik} bo‘lsa, -gina = kichraytirish-erkalash sh.;
- 2) agar {N+ko‘plik+egalik+gina} bo‘lsa, -gina = ayiruv-chegaralov yuklamasi.

Ushbu shakllarning funksiyasi nutqda urg‘u yordamida farqlanadi, ammo bu morfoanalizator tomonidan “tushunilmaydi”, shu sababli yuqoridagi modul shakl ma‘nosini farqlaydi. -gina shakli (f_2^n) *ukachaginam*, *qizchaginam* kabi so‘zlardagi -cha kichraytirish shaklidan keyin qo‘llanganda erkalash ma‘nosini beradi, chunki erkalash shakli kichraytirish shakliga qo‘shimcha ma‘no yuklaydi: erkalash ma‘nosi kichraytirish ma‘nosiga yuklatiladi [Qo‘ng‘urov, 1980: 33-145]. Otga xos lug‘aviy shakl yasovchilar orasida tarixan ikki affiskdan iborat, hozir murakkab yaxlit qo‘shimcha sanaladigan *-dagi*, *-niki*, *-gacha* kabi shakllarning qismlari *-da*, *-ni*, *-gi*, *-cha* kabi shakllar bilan omonimlik hosil qiladigandek tuyuladi. Ammo morfoanalizatorning o‘ngdan chapga qidiruv tizimi ushbu shakllarni yaxlit: “dagi”, “niki”, “gacha” holda topadi hamda to‘g‘ri tahlil qiladi, chunki bazada ushbu shakllarga kvazigrammemaligi haqidagi izoh birlashtirilgan. Tahlilda xatolik bo‘lmasligining yana bir asosi shuki, *-gi*, *ki*, *-cha* shakllari doim *-da*, *-ni*, *-ga* shakllaridan oldin keladi va pozitsion omonimlikni keltirib chiqarmaydi. -lar qo‘shimchasi hurmat ma‘nosini ifodalaganda egalik shaklidan keyin, sof ko‘plikni bildirgan egalik shaklidan oldin joylashadi. Qiyoslang: *opamlar* // *opalarim*. Shuningdek, *opalarim* so‘zshaklida -lar shaxsga nisbatan umumiylikni, *opamlar* so‘zshaklida konkretlikni bildiradi. Morfoanaliz ushbu holatni farqlashini quyidagi model bilan ta‘minlaymiz:

f = -lar bo‘lganda:

- (1) agar {R+f+r} bo‘lsa, f = ko‘plik;
- (2) agar {R+r+f} bo‘lsa, f = hurmat ma‘nosi.

Borlaring // *boringlar*, *o‘zlaring* // *o‘zinglar* so‘zshakllari ma‘nosida uslubiy farq sezilib turadi: *borlaring*, *o‘zlaring* mensimaslikni bildiradi. *Bizlarniki* (-lar ko‘plik ko‘rsatkichi – LShY) va *biznikilar* (-lar lug‘aviy shakl yasovchi va sintaktik shakl yasovchi) so‘zshakllari morfemalari pozitsiyasida ham funksional, ham semantik farq bor:

1) *bizlarniki* shakli tegishlilikni ifodalagan olmosh: noaniqlikni ifodalaydi, shaxs yoki narsaga noaniq ishora qiladi;

2) *biznikilar* shakli tegishlilikni ifodalagan olmosh, ammo shaxs va uning ko‘pligini bildiruvchi so‘zga aniq ishora qiladi.

Demak, ushbu ma‘noviy farq ham morfologik-uslubiy filtratsiya qilinishi lozim. Shuningdek, *bolalarsiz* // *bolasizlar* kabi so‘zlarida -lar qurshovining

O‘ZBEK AMALIY FILOLOGIYASI ISTIQBOLLARI

o‘zgarishi ma’no va vazifasiga ta’sir ko‘rsatadi. *Bolalarsiz yashash zerikarli // bolasizlar yig‘ilishi* qo‘llanishlarida semantik farq mavjudligi yaqqol sezilib turibdi. Ularning vazifasi quyidagicha: 1) harakat, holatning inkorini (bolalarsiz yashamoq – qanday yashamoq?) bildiradi: so‘z yasovchi vazifasini bajaradi; 2) shaxsning mavjudligi inkorini bildiradi: (*bolasizlar – bolasiz oila*) so‘z yasovchi vazifasini bajaradi. Ammo ma’noda keskin farq mavjud: hatto so‘zning turkumi o‘zgaradi. Bu kabi holatlar uchun ham semantik filtratsiyasi ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mengliyev B., Xoliyorov O‘., Abdurahmonova N. O‘zbek tilidan universal qo‘llanma. (Qayta ishlangan 3-nashri). – Toshkent: Akademnashr, 2014. – 389 b. – B. 241.
2. Абузалова М.К. Субстанциал морфология, валентлик ва синтактик курилма: Филол. фан. доктори (DSc) ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2018. – 84 б.
3. Гулямов А.Г. О некоторых особенностях аффиксов – с уменьшительно-ласкательным значением в узбекском языке / Научные труды ТашГУ. Вып. 268.
4. Журабаева М.К. К вопросу о категории уменьшительноласкательности в узбекском языке Труды аспирантов ТашГУ. Вып. 360. Литература и языкознание. – Ташкент, 1970.
5. Махкамов Н. Аффиксальный и лексико-аффиксальный плеоназм в узбекском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1983. – С. 16.
6. Степанова М.Д. Теория валентности и валентный анализ. – М., 1973.
7. Щербак А.М. Последовательность морфем в словоформе как предмет специального лингвистического исследования // Вопросы языкознания, 1983. – № 3.
8. Языкознание и литературоведение. – Ташкент, 1964.
9. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент, 1983. – Б. 102-108.
10. Қўнғуров Р. Субъектив баҳо формаларининг семантик ва стилистик хусусиятлари. – Ташкент, 1980. – Б. 33-145.
11. Қўчқортоев И.К. Сўз маъноси ва унинг валентлиги. – Тошкент, 1977.
12. Ғулломов А. Ўзбек тилида кўплик категорияси. – Тошкент, 1943. – Б. 3.

O‘ZBEK AMALIY FILOLOGIYASI ISTIQBOLLARI

MUNDARIJA

TABRIK SO‘ZI

Sirojiddinov Sh. Amaliy filologiya sohasi istiqboli va ta’limi masalalari ...	5
1. SHO‘BA. O‘ZBEKISTONDA TIL SIYOSATI VA MENEJMENTI	
Mengliyev B. O‘zbekistonda o‘zbek tilining tabiiy holati.....	8
Zaripov R. Til siyosati va menejmenti komponentlari.....	11
Hakimov M., Po‘latova G. Davlat tili va me’yoriy hujjatlar.....	15
Tojiyeva G., Niyazov S. O‘zbek zamonaviy tilshunosligida adabiy til talqini davr talabi sifatida.....	21
Norova S., Zaripov R. Davlat tilining qonun hujjatlarida qo‘llanilishi.....	26
Safarova G., Zaripov R. Jahon mamlakatlarida til siyosati va til boshqaruvi.....	31
2. SHO‘BA. ZAMONAVIY LEKSIKOGRAFIYA VA MILLIY TERMINOLOGIYA MUAMMOLARI	
Islomov I. O‘zbek tili milliy korpusi uchun geografik terminlar tizimi tasnifini amalga oshirishga doir.....	35
Bobojonov Sh. O‘zbek tili fe‘llarining lisoniy ma’nosi va uning nutqiy voqelanish vosita hamda omillari.....	37
Mahmudov R. Ogahiy tarixiy asarlarida individual uslub bilan bog‘liq o‘zlashmalar.....	46
Turdimurodov S. Frazeologik evfemik birliklar va ularning ayrim xususiyatlari.....	53
Abdurashidova S. O‘zbek va ingliz tillarida yangi so‘z hosil bo‘lishi yo‘llari.....	60
Axmedova D. Semantik kengaytmada bir sememali va ko‘p sememali leksemalarning ifodalanishi.....	63
Yuldashev F. “Ma’naviyat” va “mafkura” leksemalarining integral va differensial xususiyatlari.....	66
Shukurov O. Yangi davr o‘zlashmalarining semantik taraqqiyoti xususida..	72
Turdaliyeva D. Paremiyalarda modallik munosabatlarining ifodalanishi....	78
Islomova Sh. Qashqadaryo qipchoq shevasiga oid frazeologizmlar.....	81
Bobojonova Sh. O‘zbek tilidagi “axloq” umumiy semali atov birliklarining ensiklopedik lug‘atda berilishi.....	86
Shirinova M. Kino tilidagi “vasvasagin” va “sevginator” yasalmalari xususida.....	89
Karimova X. O‘zbek tilida “jasorat” umumiy semali atov birliklarining tarixiy-etimologik xususiyatlari.....	93
Islomova Sh. Qashqadaryo qipchoq shevasi frazeologizmlari antonimiyasi..	96
Sobirov M. O‘quv izohli lug‘atlar masalasiga doir.....	100
Tursunova D. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”dagi ba’zi folklorizmlarning funksional-semantik va uslubiy xususiyatlari.....	103

O‘ZBEK AMALIY FILOLOGIYASI ISTIQBOLLARI

Eshboyeva Sh. Bandixon tumani shevasiga oid dialektal so‘zlar to‘g‘risida.	108
3. SHO‘BA. KOMPYUTER VA KORPUS LINGVISTIKASINING AMALIY MASALALARI	
Hamroyeva Sh. Lug‘aviy shakl yasovchi qo‘shimchalarning ot so‘z turkumidagi qurshovi va lingvistik modellashtirish xususida.....	113
Gulyamova Sh. Semantik analizator uchun polifunksional so‘zlarni farqlashning lingvistik omillari.....	117
Abdullayeva O. O‘zbek tili korpusida matnlarni sintaktik annotatsiyalash masalasi.....	122
Xolova M. Dialektal korpusning fonetik metarazmetkasi haqida ayrim qaydlar.....	127
Xidirov O. So‘z birikmalarini lisoniy-sintaktik qoliplar asosida sintaktik teglash.....	136
Elova D. Tabiiy tilni qayta ishlash tizimlari.....	140
Tangriyev V. Types of parallel corpora according to application.....	149
Xusainova Z. NLP: tokenizatsiya, stemming, lemmatizatsiya va nutq qismlarini teglash.....	154
Axmedova X. Chastotali usul yordamida omonimiyani aniqlash.....	164
Xonnazarov E. -Gan/-kan/-qan zamon shaklini korpusda annotatsiyalash...	171
Karimov S., Tursunov M., Xolmuxamedov B. O‘zbek tili milliy korpusi uchun matnlarni formatlash dasturlari.....	179
Salomov A. Mashina tarjimasini uchun o‘zbek-ingliz tillari sinonimlari bazasini yaratish prinsiplari.....	185
Suyunova M. Grammatik omonimlarni modellashtirish xususida.....	189
Samatboyeva M. Mashinaviy o‘qitish yordamida matnlarda ner obyektlarni tanib olish metodlari.....	195
Mahmudjonova G. O‘zbek tilida lemmatizatsiya hodisasi. lemmatizatsiya va stemmingni farqlash.....	200
Nizomova Z. Terminologik tezauruslar va ularning ahamiyati.....	203
Raxmonova M. Kompyuter lingvistikasi rivoji va sintaktik analizator yaratish masalasi.....	208
Xolmonova I. Ikki tilli parallel korpusning chet tilini o‘rganishdagi ahamiyati.....	212
Uzoqova M. O‘zbekcha sinonimayzer dasturini takomillashtirishda qisman ma’noli sinonimlarni aniqlash metodi.....	215
4. SHO‘BA. LINGVISTIK EKSPERTIZA MASALALARI	
To‘rayeva D. Og‘zaki nutqning lingvistik ekspertizasi.....	220
Musulmonova K. Inson yozma nutqida identifikatsion alomatlarining yuzaga kelishi.....	224
Suvonov Z. Badiiy matnni lingvistik ekspertiza qilishning metodologik muammosi.....	229
Xotamova G. Shaxsiy yozishmalarda o‘smir qizlar yozma nutqining topografik xususiyatlari.....	234

O‘ZBEK AMALIY FILOLOGIYASI ISTIQBOLLARI

Soliyeva N. Lingvistik ekspertizada “da’vat” tushunchasi tahlili.....	240
Najmiddinova N. Haqorat tushunchasi va uning lingvistik ekspertizasi.....	243
Suvonov Z. Badiiy matn lingvistik ekspertizasining metodologik asoslari..	246
Umrzaqova G. Muammoli yozishmalarda tahdidga doir so‘zlarning lingvistik ekspertizasi.....	252
Nosirova Sh. Lingvistik ekspertizada shaxsni obro‘sizlantirish tushunchasi	257
Sultonova E. Turli ziddiyatli matnlarni lingvistik ekspertiza qilish asoslari	261

5. SHO‘BA. AMALIY FILOLOGIYA MUAMMOLARI YOSH TADQIQOTCHILAR NIGOHIDA

Zaripov R. Amaliy filologiya yo‘nalishi talabalarining tanishuv amaliyotini tashkil etish bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar.....	263
Bakiyeva X. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqi va tafakkurini o‘stirish — til ta’limining dolzarb muammosi sifatida.....	268
G‘ulomova X. Grammatik mavzularni o‘rganish jarayonida o‘quvchilarni faollashtirish.....	272
Jo‘raeva N. Disfemizm tushunchasi va uning pragmatik xususiyatlari.....	276
Xo‘jayev N. Abdulla Oripov she‘riyatidagi personaj nutqining gender xususiyatlari.....	281
Khidirova G. Cultural differences of words ‘gratitude’ and ‘apology’ in english and their counterparts in uzbek.....	286
Juraev N. Teaching composition writing.....	289
Po‘latova S. O‘zbekiston davlat madhiyasida “g‘urur” konseptining ifodalanishi.....	293
Qudratova M. Asqar Mahkam she‘riyatida vatan mavzusi.....	296
Rajabova M., Nematullayeva M. Nodira g‘azallarining nashrlariga doir mulohazalar.....	300
Boltayeva N. Tabassum – noverbal aloqa vositasi.....	304
Barotova M. Muloqotda barmoq ishtirokidagi o‘zbekona paralingvistik vositalarning ahamiyati.....	308
Nurmurotov I. Dastlabki punktuatsion belgilarning shakllanishi.....	313
Abdumannatova N. “Hotamnoma” asarining lingvofolkloristik tahlili.....	317
Egamberdiyev F. Holat bildiruvchi sifatlarning o‘zbek tilida o‘rganilishi..	320
Allanazarova F. O‘zbek hikoyachiligida yangilik va an‘ana.....	325
Yo‘ldosheva D. Til birligida taqlid so‘zlar.....	329
Turoпова H. O‘zbek tilshunosligida xalq maqollari lingvistik tadqiqi masalalarining o‘rganilishi.....	332
Худайбердиева И. Сложности в различии падежей русского и узбекского языков.....	338
Ibrohimova M. Harakat nomi va infinitivning qiyosiy tahlili.....	344